O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari0: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

YOŞLAR TAFAKKURIDA HARBIY QAHRAMONLIK IDEALLARINI ŞAKLLANTIRIŞNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Pulatov Baxodir Abduraupovich
Farğona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli boshliğ'i f.f.b.f.d (PhD), dotsent, rezervdagi podpolkovnik
bohodirpulatov248@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-7144-7975

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallaşuv va axborot xurujlari jadallaşgan zamonaviy şaroitda özbek yoşlari tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini şakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari, qonuniyatlari va mexanizmlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy va umumbashariy qadriyatlar, tarixiy xotira hamda buyuk ajdodlarimizning harbiy merosi yoş avlod dunyoqaraşini yuksaltirishning poydevori sifatida ko'rib chiqiladi. Şuningdek, maqolada harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy institutlar (oila, ta'lim muassasalari, mahalla va ommaviy axborot vositalari) tizimidagi o'rni hamda bugungi kunda yoşlar ongiga milliy g'oya va vatanparvarlik tuyğularini singdirişning strategik yönalişlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit sözlar*: Harbiy qahramonlik, ideal, yoşlar tafakkuri, ijtimoiy-falsafiy asoslar, milliy özlikni anglaş, tarixiy xotira, axborot xurujlari, vatanparvarlik tarbiyasi, ma'naviy tahdidlar.*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕАЛОВ ВОЕННОГО ГЕРОИЗМА В МЫШЛЕНИИ ВОЕННОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной статье системно анализируются социально-философские основы, закономерности и механизмы формирования идеалов военного героизма в мышлении узбекской молодежи в современных условиях ускорения глобализации и информационных атак. В исследовании национальные и общечеловеческие ценности, историческая память и военное наследие наших великих предков рассматриваются как фундамент повышения мировоззрения молодого поколения. Также в статье научно обоснована роль военно-патриотического воспитания в системе социальных институтов (семья, образовательные учреждения, махалля и средства массовой информации) и стратегические направления внедрения национальной идеи и патриотических чувств в сознание молодежи на сегодняшний день.*

Ключевые слова: *Военный героизм, идеал, мышление молодежи, социально-философские основы, национальное самосознание, историческая память, информационные атаки, патриотическое воспитание, духовные угрозы.*

SOCIAL-PHILOSOPHICAL BASES OF FORMING MILITARY HEROISM IDEALS IN THE THINKING OF YOUTH

Abstract. *This article systematically analyzes the socio-philosophical foundations, laws and mechanisms of forming military heroism ideals in the thinking of Uzbek youth in modern conditions of accelerated globalization and informational attacks. In the research, national and universal values, historical memory and the military heritage of our great ancestors are considered as the foundation of raising the worldview of the younger generation. Also, the article scientifically substantiates the role of military-patriotic education in the system of social institutions (family, educational institutions, mahalla and mass media) and strategic directions of instilling the national idea and patriotic feelings into the minds of youth today.*

Keywords: *Military heroism, ideal, youth thinking, socio-philosophical foundations, national self-awareness, historical memory, informational attacks, patriotic education, spiritual threats.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab geosiyosiy va göyaviy-mafkuraviy jarayonlar, turli kuçlarning dunyoni qayta taqsimlaşga bölgan intilişlari va "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi ma'naviy tahdidlar har bir suveren davlatdan öz milliy xavfsizligi va mudofaa salohiyatini nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham mustahkamlaşni talab etmoqda. Harbiy qudrat faqat zamonaviy qurol-yarog'lar bilan emas, balki eng avvalo, o‘şa qurolni ushlab turgan askar va uni qöllab-quvvatlovçi xalqning yuksak ma'naviyati, vatanparvarligi va metindek irodasi bilan ölçanadi. Şu ma'noda, yoşlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini şakllantirish davlat siyosatining strategik ustuvor yönalişlaridan biri hisoblanadi.

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz qurolli kuçlarimizni moddiy jihatdan har qança zamonaviy ta'minlamaylik, agar askarlarimiz, ofitserlarimizda yuksak vatanparvarlik tuyğusi, milliy ğurur va sadoqat şakllanmasa, barcha urinishlarimiz zoe ketadi" [3]. Şu bois, navqiron avlod ongida harbiy xizmatga bölgan hurmatni oşirish va ularni qahramonlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tadqiq etish nihoyatda dolzarb vazifadir. Axborotlaşgan jamiyatning rivojlanishi yoşlar dunyoqaraşiga turliça ta'sir körsatmoqda, bu esa harbiy qahramonlik tuşunçasini virtual makondan real hayotiy qadriyatga aylantiriş mexanizmlarini işlab çiqaşni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Harbiy qahramonlik, fidoyilik va ideal tuşunçalari falsafa, sotsiologiya va harbiy psixologiya fanlarining fundamental mavzularidan biri bölib kelgan. Qadimgi dunyo mutafakkirlari Platon va Aristoteldan boşlab, jasorat va mardlik ijtimoiy barqarorlik va davlat xavfsizligining oliy fazilati sifatida talqin qilingan. Şarq renessansi namoyandalari bölmiş Abu Nasr Forobiy özining "Fozil odamlar şahri" asarida davlatni himoya qiluvçi jangçilarning ma'naviy va aqliy qiyofasiga alohida töxtalib, ularda adolat, mardlik va xalqqa sadoqat birlamçi bölişi kerakligini uqtiradi [2]. Mutafakkir fikriça, mudofaa tizimining yetakçilari jismoniy baquvvatlik bilan birga yuksak intellektual salohiyatga ega bölişi lozim. Alişer Navoiy asarlarida esa qahramonlik faqat jismoniy kuç emas, balki qalb va ruh ma'rifati bilan boğlanadi.

Zamonaviy özbek faylasuflari va sotsiologlari, xususan I.Ergaşev, Q.Nazarov va J.Toşqulovlar öz ilmiy işlarida milliy göya va vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy jihatlarini tizimli örganganlar. I.Ergaşev vatanparvarlik mezonlarini ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida baholasa [1], Q.Nazarov g'oyalar falsafasi kontekstida milliy mafkuraning yoşlar ongini yot ta'sirlardan himoya qilişdagi mudofaa funksiyasini tahlil etadi [4]. Biroq, aynan harbiy qahramonlik ideallarining yoşlar dunyoqaraşiga ta'sir qiliş mexanizmlari dinamik özgarişlar şaroitida alohida fundamental tadqiqotni talab etadi. Bugungi globallaşuv davrida g'arb sotsiologiyasidagi pragmatizm va individualizm g'oyalarining yoşlar ongiga salbiy ta'sirini kamaytirishda aynan harbiy-tarixiy ideallarning o‘rni beqiyosdir.

METODOLOGIYA

Uşbu tadqiqotni amalga oşirişda tizimlilik, qiyosiy-tarixiy tahlil, ijtimoiy prognozlaştiriş, obyektivlik va sinergetik yondaşuv prinsiplaridan foydalanildi. Yoşlar tafakkurining şakllanişi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan statik holatda emas, balki dinamik rivojlanişda va ijtimoiy institutlarning özaro aloqadorligi kontekstida o‘rganildi. Maqolada keltirilgan xulosalar özbek xalqining qahramonlik eposlari, tarixiy manbalar va bugungi kundagi ijtimoiy sörovnomalar natijalarini falsafiy umumlashtirish orqali

şakllantirildi. Mazkur sinergetik yondaşuv yoşlar ongida keçayotgan murakkab transformatsiyalarni aniqlaş va ularni ijobiy tomonga yönaltiriş imkonini berdi.

Harbiy qahramonlik ideali — bu şunçaki harbiy harakatlar jarayonidagi jasorat emas, balki şaxs dunyoqaraşining yuqori bosqiçi bölib, unda ijtimoiy burç şaxsiy manfaatlardan ustun turadi. Yoşlar tafakkurida uşbu idealni şakllantiriş uçta asosiy poydevorga tayanadi:

1. Tarixiy-madaniy poydevor: Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning harbiy san'ati va çeksiz vatanparvarligi yoşlar uçun eng oliy andoza hisoblanadi. Tarixiy xotira yoşlarni milliy özlikdan uzilib qolişdan asraydi.

2. Davlat va huquqiy poydevor: Özbekiston Qurolli Kuçlarining zamonaviy nufuzi, harbiy xizmatçilar uçun yaratilgan ijtimoiy-huquqiy kafolatlar va milliy armiyamizning xalqaro maydondagi obrösi yoşlarda harbiy kasbga nisbatan iftixor tuyğusini uyğotadi. Mudofaa doktrinasining oçikliq va tinçliksevarlik tamoyillari bu iftixorni yanada mustahkamlaydi.

3. Ma'naviy-göyaviy poydevor: Milliy göya va istiqlol mafkurasi yoşlar ongida Vatan himoyasini muqaddas burç darajasiga kötaradi. Bu esa yot ğoyalarga qarşi mafkuraviy immunitet vazifasini o‘taydi.

Yoşlar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy-falsafiy tahlillar va sotsiologik sörovlar modelini o‘rganiş natijasida, ularning harbiy qahramonlik tuşunçasiga bölgan munosabati va ustuvor omillar aniqlandi. Quyidagi 1-jadvalda yoşlar ongida vatanparvarlik va harbiy qahramonlik ideallarini şakllantiruvçi yetakçi manbalarning ta'sir darajasi aks ettirilgan:

1-jadval

Yoşlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini şakllantiruvçi manbalar tahlili

№	Şakllantiruvçi omillar va ijtimoiy institutlar	Ustuvorlik darajasi (%)	Asosiy yönalişi va ta'sir mexanizmi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1	Tarixiy şaxslar va buyuk sarkardalar merosi	38%	Tarixiy xotira, milliy ğurur va özlikni anglaş
2	Oila muhiti va ota-onaning şaxsiy ibrati	24%	Dastlabki ma'naviy poydevor, burç hissi
3	Raqamli makon, OAV va milliy media-kontentlar	18%	Vizual obrazlar, zamonaviy qahramonlar tarğiboti
4	Ta'lim muassasalari (ÇXT va tarix darslari)	12%	Nazariy bilimlar, harbiy-taktik könikmalar
5	Mahalla va ijtimoiy muhit	8%	Jamoaviy nazorat va vatanparvarlik an'analari

O‘tkazilgan tahlillar şuni körsatadiki, yoşlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini şakllantiriş faqatgina harbiy akademiyalar yoki mudofaa tizimining vazifasi emas. Bu jarayon uzluksiz zanjir bölib, oilada ona allasi va ota ibratidan boşlanadi, maktabda tarix va çaqiriqqaçha harbiy ta'lim darslarida mustahkamlanadi, mahalla va OAV orqali esa ijtimoiy ong qatlamlariga singadi. Bugungi axborot makonidagi kibertahdidlar va gibrid uruşlar şaroitida virtual olamda ham milliy qahramonlarimiz obrazini vizuallaştiriş, yoşlarbop media-kontentlar yaratiş zarurati ortib bormoqda. Axborot xurujlariga qarşi barqaror immunitet hosil qiliş yoşlarning nafaqat ötmiş qahramonlariga, balki tinçlik davrida öz burçini sidqidildan bajarayotgan zamondoş askar va ofitserlar timsoliga tayanaşini talab qiladi.

XULOSA

Yoşlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini şakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini o‘rganiş natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Birinçidan, harbiy qahramonlik ideali zamonaviy yoşlarning ijtimoiy faolligi va davlat

poydevorining mustahkamligini ta'minlovçi asosiy omillardan biridir. U yoşlar ongini ijtimoiy loqaydlik va boqimandalik kayfiyatidan himoya qiladi.

- milliy tarixiy siymolarimiz va mustaqillik yillarida öz burçini bajarişda jon fido qilgan zamondoş qahramonlarimiz hayotini keng tarğib qiliş tizimli xarakterga ega bölişi kerak. Tarğibot işlarida hissey va mantiqiy muvozanatni saqlash lozim.

- ta'lim muassasalari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini taşkil etişda şunçaki quruq ma'ruzalardan voz keçib, interaktiv metodlar, harbiy-taktik öyinlar va raqamli texnologiyalardan (masalan, tarixiy janglar aks etgan milliy kompyuter öyinlari) keng foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergaşev I. Vatanparvarlikning ijtimoiy-falsafiy mezonlari. - Toşkent: "Akademiya", 2011.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar şahri. - Toşkent: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi naşriyoti", 1993.
3. Mirziyoyev Ş.M. Milliy taraqqiyot yölimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqiçga kötaramiz. - Toşkent: "O'zbekiston", 2017.
4. Nazarov Q. Göyalar falsafasi. - Toşkent: "O'zbekiston", 2012.
5. Özbekiston Respublikasining "Mudofaa töğrisida"gi Qonuni va Mudofaa doktrinasi. - Toşkent, 2018.
6. Pulatov B.A. "Yoşlar tafakkurida harbiy qahramonlik idealini şakllantirişning ijtimoiy-falsafiy jihatlari" nomli dissertatsiya.